



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
<i>Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</i>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
<i>D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</i>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
<i>Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
<i>Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</i>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<i>Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</i>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
<i>Axmedov Jaloliddin Oribovich</i>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<i>Baxramova Malika Muzaffarovna</i>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
<i>Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<i>D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</i>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
<i>Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</i>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<i>Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</i>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<i>G'ayratova Mohidil Zafar qizi</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
<i>Maksetova Nurjamal Kuatovna</i>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
<i>Malikova Xurshida Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<i>Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</i>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<i>Muxammadova Ozoda Muzrabovna</i>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<i>N. G. Pulatova</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</i>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
Журабаев Абдукарим Маматкулович	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна	



UMUMTA'LIM MAKTABIDA BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARIDA KUZATILADIGAN NUTQ XUSUSIYATLARI

Zairova Nigora

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
 Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakultetining
 Logopediya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Yosh maktab o'quvchilarida nutq rivojlanishining asosiy komponentlari - talaffuz, lug'at boyligi, grammatik tuzilma va nutqning izchilligi tahlil qilingan. Bolalarning yoshga xos xususiyatlari hamda og'zaki nutq rivojlanishida uchraydigan tipik qiyinchiliklar, xususan, fonemik eshitishning yetarli darajada shakllanmaganligi, lug'at boyligining cheklanganligi va kengaytirilgan gaplarni tuzishdagi murakkabliklarga alohida e'tibor qaratilgan.

Maqolada og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik metod va usullar, jumladan, dialogik muloqot shakllari, nutqiy mashqlar hamda o'yin texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda o'qituvchining tizimli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyati muhim omil sifatida asoslangan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda pedagogika va logopediya sohalari mutaxassislari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, boshlang'ich sinf o'quvchilari, nutqni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya, lug'at boyligi, grammatik tuzilma, izchil nutq, fonemik eshitish, nutq qiyinchiliklari, pedagogik metodlar.

Abstract: This article examines the development of oral speech in primary school students within general education settings. The main components of speech development in younger learners-pronunciation, vocabulary, grammatical structure, and coherence of speech-are analyzed. Particular attention is given to age-related characteristics as well as common difficulties in oral speech development, such as insufficient phonemic awareness, limited vocabulary, and challenges in constructing extended utterances.

The study highlights effective pedagogical methods and techniques aimed at improving oral speech, including dialogic communication forms, speech exercises, and game-based learning technologies. The importance of systematic and goal-oriented teacher intervention in developing students' communicative competence is emphasized. The findings are of practical relevance for primary school teachers and specialists in pedagogy and speech therapy.

Key words: oral speech, primary school students, speech development, communicative competence, vocabulary, grammatical structure, coherent speech, phonemic awareness, speech difficulties, pedagogical methods.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности развития устной речи у учащихся начальных классов в общеобразовательной школе. Анализируются ключевые компоненты речевого развития младших школьников, включая произносительную сторону речи, словарный запас, грамматический строй и связность высказываний. Особое внимание уделяется возрастным особенностям детей, а также типичным трудностям формирования устной речи, таким как недостаточная развитость фонематического слуха, ограниченность словарного запаса и затруднения в построении развернутых высказываний.

В работе раскрываются эффективные педагогические методы и приемы, направленные на развитие устной речи, в том числе использование диалогических форм общения, речевых упражнений и игровых технологий. Подчеркивается значимость систематической и целенаправленной деятельности учителя в формировании коммуникативных компетенций учащихся. Материалы статьи представляют практическую ценность для учителей начальных классов и специалистов в области педагогики и логопедии.

Ключевые слова: устная речь, младшие школьники, развитие речи, коммуникативная компетенция, словарный запас, грамматический строй речи, связная речь, фонематический слух, речевые трудности, педагогические методы.

KIRISH

Maktab o'quvchilarida nutq buzilishlari turli omillar bilan bog'liq bo'lib, har bir nutq nuqsoni o'ziga xos xususiyatga ega hamda o'quvchilarning umumiy rivojlanishi va ta'limdagi muvaffaqiyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim hollarda maktab yoshidagi bolalarda so'z boyligining kamligi, grammatik tuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi, izchil nutqning rivojlanmaganligi, tovush talaffuzidagi kamchiliklar hamda fonemik idrokning pastligi kuzatiladi. Bu holatlar bolaning o'z fikrlarini aniq, to'liq va to'g'ri ifoda eta olmasligiga olib keladi.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi ko'pincha turli patologik holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Jumladan, nutq apparati a'zolarining anatomik tuzilishidagi nuqsonlar yoki ularning harakatchanligining buzilishi, eshitish va ko'rish qobiliyatining pasayishi, shuningdek, markaziy asab tizimidagi o'zgarishlar nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshqa holatlarda esa nutqdagi kamchiliklar pedagogik e'tiborsizlik natijasida yuzaga keladi. Masalan, bolaning yetarli darajada muloqot qilmasligi, atrofidagi kattalarning noto'g'ri nutq namunasini qo'llashi yoki bunday nuqsonlarni "bolalarga xos tabiiy holat" sifatida baholab, o'z vaqtida e'tibor qaratmaslik nutq buzilishlarining chuqurlashishiga olib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktab yoshidagi bolalarda o'z vaqtida bartaraf etilmagan fonetik nuqsonlar asta-sekin mustahkamlanib boradi va ularni tuzatish jarayoni murakkablashadi. Chunki bola tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasini shakllantirib, uni odat sifatida mustahkamlaydi.

Odatda, maktab o'quvchilaridagi nutq buzilishlari maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatiladigan kamchiliklarga o'xshash bo'ladi. Biroq ayrim hollarda maktabgacha davrda nutq rivoji me'yorida bo'lgan bolalarda ham maktab davrida nutq buzilishlari yuzaga kelishi mumkin.

Maktab o'quvchilarida uchraydigan asosiy nutq buzilishlari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- fonetik yoki fonetika-fonemik yetishmovchilik (mexanik va funksional dislaliya, rinolaliya, dizartriya);
- nutqning umumiy rivojlanmaganligi (alaliya, rinolaliya, dizartriya);
- nutqning tempo-ritmik tashkil etilishining buzilishi, ya'ni konvulsiv yoki konvulsiv bo'lmagan holatlar (nevrotik yoki nevrozga o'xshash duduqlanish).

Nutq buzilishiga ega bo'lgan maktab o'quvchilari orasida yozma nutqning (o'qish va yozishning) buzilishi keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bu holat ko'pincha ularning og'zaki nutqidagi kamchiliklar, ya'ni fonemik, morfologik va sintaktik umumlashtirishlarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi.

To'liq nutqiy aloqa tajribasiga ega bo'lmagan, nutqida nuqsoni mavjud bolalar maktabgacha yosh davrida savodxonlikni egallash uchun zarur bo'lgan til materiallarini - tovush tarkibi, lug'at boyligi, grammatik tuzilma va izchil nutqni tahlil qilish hamda sintezlash ko'nikmalarini yetarli darajada egallamagan bo'ladilar. Natijada ular o'qish va yozishni o'zlashtirish jarayonida qiyinchiliklarga duch keladilar.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning har tomonlama uyg'un rivojlanishini nazarda tutadi. Bunda shaxsning alohida jihatlarini emas, balki aqliy, hissiy-irodaviy, amaliy va nutqiy rivojlanishni kompleks tarzda shakllantirish zarur. Ushbu sohalardan birortasining yetarli rivojlanmaganligi maktabda muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Nutqiy jihatdan yetarlicha tayyor bo'lmagan bolaning maktabga kirishi, agar zarur psixologik, tibbiy va pedagogik choralar ko'rilmasa, uning keyingi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqning tovushli va leksik-grammatik jihatlarining shakllanmaganligi sababli bunday o'quvchilar, ayniqsa, ona tili va matematika fanlarida doimiy qiyinchiliklarga duch keladilar.

Nutq buzilishining og'irlik darajasiga qarab, maktab yoshidagi bolalarga turli ko'rinishdagi logopedik yordam ko'rsatiladi. Yengil va qisman buzilishlar maktabdagi logopedik punktlarda bartaraf etiladi. Bunday punktlar faoliyati tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan bo'lib, tegishli me'yoriy-uslubiy hujjatlar, mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar hamda bolalar kontingentini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan.

Logopedik mashg'ulotlar umumiy ta'lim jarayoni bilan parallel ravishda olib boriladi, biroq ular sinf o'qituvchisining faoliyatini takrorlamaydi. Ushbu mashg'ulotlar korreksion va rivojlantiruvchi yo'nalishga ega bo'lib, bolalarning nutqiy hamda umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablaridagi logopedik punktlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning og'zaki nutqidagi buzilishlarni aniqlash va tuzatish;
- o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida logopedik bilimlarni targ'ib qilish;
- nutq buzilishlarini erta aniqlash va ularni bartaraf etish;
- hamda nutq nuqsonlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikkilamchi buzilishlarning oldini olish.



Logopedik mashg'ulotlar davomida nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari ham shakllantiriladi. Doimiy muvaffaqiyatsizlik natijasida ayrim o'quvchilarda o'qishga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi mumkin. Shu sababli logopedik darslarda bolalarning kognitiv faolligini oshirish, grammatikani o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan aqliy faoliyat usullarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bolalar odatda shifokorlar tomonidan o'tkazilgan tibbiy ko'rikdan so'ng, o'qituvchilar tavsiyasi yoki ota-onalar tashabbusi bilan logopedik punktlarga yo'naltiriladi. Nutq buzilishlarini samarali bartaraf etishning muhim sharti - ularni o'z vaqtida aniqlash, to'g'ri tashxis qo'yish hamda logoped, sinf o'qituvchisi va ota-onalar o'rtasidagi uzviy hamkorlikni ta'minlashdir. Bunday kompleks yondashuv korreksion-pedagogik ishlarning samaradorligini oshiradi.

Ota-onalar ham logopedik jarayonda faol ishtirok etadilar: ular bilan suhbatlar o'tkazilib, bolaning nutq nuqsoni va uni bartaraf etish yo'llari tushuntiriladi.

Maktab o'quvchilarining nutq faolligini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Hatto yengil nutq buzilishlari mavjud bo'lgan bolalarda ham muloqot qilish qobiliyati pasayishi mumkin. Shu sababli logopedik mashg'ulotlar davomida turli kommunikativ vaziyatlar yaratiladi, bu esa nafaqat nutqni, balki nutqiy fikrlash faoliyatini ham faollashtiradi.

Mashg'ulotlarda nutq faoliyatining barcha bosqichlari ustida ish olib boriladi: nutqiy motivatsiyani rivojlantirish, nutq natijasini oldindan rejalashtirish, so'z tanlash, grammatik tuzilmani shakllantirish va nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Bolalar mulohaza yuritish, xulosa chiqarish va izchil fikr bayon qilishga o'rgatiladi. Bu esa nutqning kommunikativ va umumlashtiruvchi funksiyalarining rivojlanishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Logopedik markazlarda korreksion ishlar o'quv yili davomida individual, kichik guruh va frontal mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Mashg'ulotlar jarayonida tovush talaffuzi, fonemik idrok, lug'at boyligi, grammatik tuzilma, izchil nutq, o'qish va yozish ko'nikmalari ustida tizimli ish olib boriladi. Shu bilan birga, ish psixoterapevtik yo'nalishda ham olib borilib, bolaning shaxsiy xususiyatlari inobatga olinadi.

Agar nutq buzilishi og'ir darajada bo'lib, uni umumta'lim maktabi sharoitida bartaraf etish imkoni bo'lmasa, bunday bolalar maxsus maktablarda ta'lim oladilar. Ushbu maktablarda odatda ikki yo'nalish mavjud: og'ir nutq buzilishlari (alaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya) va og'ir duduqlanish holatlari. Ta'lim maxsus dasturlar asosida, korreksion-pedagogik usullar yordamida amalga oshiriladi.

Logopediyada differensial yondashuv nutq tizimi komponentlarining rivojlanish darajasi hamda nutqiy bo'lmagan psixik jarayonlarning xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Ish nutq va savodxonlikni o'zlashtirish uchun zarur psixologik tayyorgarlikni shakllantirishga qaratiladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligida til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap, matn) tahlil qilish va sintezlash ko'nikmalari yetarli rivojlanmagan bo'ladi, bu esa yozma nutqni o'zlashtirishga tayyor emaslik holatini yuzaga keltiradi.

Korreksion ishlar individual, guruhli va frontal mashg'ulotlarning uyg'un kombinatsiyasi asosida olib boriladi. Individual mashg'ulotlar odatda haftasiga 2–3 marotaba o'tkaziladi. Shu bilan birga, nutqni rivojlantirish ishlari ona tili darslarida ham davom ettiriladi.

Maktabdagi barcha pedagoglar yagona nutq rejimi asosida faoliyat yuritib, sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali ham nutqni rivojlantirish jarayonini qo'llab-quvvatlaydilar.

Nutqni rivojlantirish darslarining asosiy vazifasi - bolalardagi nutq kamchiliklarini bartaraf etish, til kompetensiyasini oshirish hamda nutqdan aloqa va umumlashtirish vositasi sifatida foydalanishga o'rgatishdir. Nutq ko'nikmalari asosan nutqiy amaliyot orqali shakllanadi, shuning uchun maxsus tashkil etilgan nutqiy muhit muhim ahamiyatga ega.

Ko'p hollarda logopedik punktlar va maxsus maktablarda olib borilgan ishlar natijasida ijobiy rivojlanish dinamikasi kuzatiladi. Ayniqsa, 2–3-sinflarda asosiy nutq kamchiliklarini sezilarli darajada bartaraf etish mumkin bo'ladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda e'tibor, xotira, idrok, o'zini boshqarish kabi psixik jarayonlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Bu holatlar nutq buzilishlari bilan birgalikda ta'lim jarayonini murakkablashtiradi.

Shu sababli nutq buzilishlarini bartaraf etishda nutqiy va nutqiy bo'lmagan jarayonlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan maxsus korreksion yondashuvlar qo'llaniladi.

Leksik ishlar bolalarning passiv va faol lug'atini kengaytirishga, so'z ma'nolarini anglashga, fikrni aniq va izchil ifodalashga o'rgatishga qaratiladi. Bu jarayon grammatik tuzilma va tovush talaffuzini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi.

Shuningdek, bolalar nutq tovushlarini farqlash, ularni tahlil qilish, urg'uni aniqlash kabi fonetik ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'zlashtiradilar. Logopedik mashg'ulotlar natijasida bolalarda nutqning tovush tuzilishini anglash, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va ularni farqlash ko'nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бельюков В.И. Взаимодействие анализаторов в процессе восприятия и усвоения устной речи. М., 1977.
2. Коррекционная педагогика: Основы обучения и воспитания детей с отклонениями в развитии: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений / Б.П.Пузанов, В.И.Селиверстов, С.Н.Шаховская, И.А.Костенкова; Под ред. Б.П.Пузанова. - М.: Издательский центр "Академия", 1998.- 144с.
3. Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой, С.Н. Шаховской. – М., 2003.
4. Система коррекционной работы в логопедической группе для детей с общим недоразвитием речи. – СПб: детство – пресс, 2005
5. Преодоление общего недоразвития речи дошкольников. Учебно- методическое пособие /Под ред. Т.В. Волосовец – М.: Институт общегуманитарных исследований 2002

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.